



TALABALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYA FANINING INTEGRATIV IMKONIYATLARI

Novshadbekova Dilnura Zafarbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226618>

Annotasiya. Mazkur maqola talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda tarbiya fanining integrativ imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tarbiya fanining maqsadi faqat ma'lum bir axborotni uzatish emas, balki talabalar ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni yangi yondashuvlar va g'oyalar yaratishga undashdir. Maqolada tarbiyaviy jarayonning zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodologiyalar va interaktiv texnologiyalar bilan boyitilishi, shuningdek, fanlararo aloqalar va integratsiya orqali talabalarning kreativ fikrlashini qo'llab-quvvatlashga oid tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, talaba, tarbiya fani, integratsiya, pedagogik yondashuv, metodologiya, interaktiv texnologiyalar, ijodiy ko'nikmalar, tarbiyaviy jarayon.

Innovatsion ta'lim tizimi oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Kreativ fikrlash muammolarni noodatiy usullar bilan hal qilish, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, innovatsion fikrlar yaratish jarayoni hisoblanadi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda bu qobiliyat nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamiyatning rivojlanishi uchun ham muhim sanaladi. Fanlararo integratsiya esa pedagogik jarayonni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarbiya fani talabalar dunyoqarashini kengaytirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, mazkur maqolada tarbiya fanining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi integrativ imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kreativ fikrlash insonning mavjud bilimlardan yangi natijalar chiqarish, muammolarga innovatsion yechim topish va original fikrlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat nafaqat tabiiy fanlar yoki san'at sohasida, balki pedagogik jarayonlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash inson tafakkurining eng yuksak shakllaridan biri hisoblanib, u muammolarni yangi usulda hal qilish, tanqidiy fikrlash, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va ijodiy ifoda qilish orqali namoyon bo'ladi.

Tarbiya fani boshqa fanlar bilan uyg'unlashgan holda kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya va kreativlik talabalar ma'naviy qadriyatlarni tahlil qilish, ularga ijodiy yondashish orqali yangi fikrlarni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, qadimgi falsafiy ta'limotlarni o'rganish orqali zamonaviy muammolarga innovatsion yechimlar ishlab chiqish mumkin. Madaniy integratsiya tarbiya jarayonida adabiyot, san'at va tarix fanlari bilan bog'liqlik o'rnatish talabalar fikrlashini kengaytiradi. Masalan, turli millatlarning san'ati va madaniyatini tahlil qilish, ularning kreativ jihatlarini o'rganish orqali yangi ijodiy g'oyalar shakllantiriladi. Muammoli ta'lim yondashuvi muayyan tarbiyaviy masalalarni mustaqil tahlil qilish va innovatsion yechimlar topishga yo'naltirish orqali ijodiy tafakkurni rag'batlantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, loyiha faoliyati orqali talabalar mustaqil fikrlash va yangicha qarashlar shakllantirish imkoniga ega bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, talabalar o'z ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini yaxshilash bo'yicha kreativ loyihalar ishlab chiqishlari mumkin. Texnologik innovatsiyalar bilan integratsiya esa tarbiya fanini zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lash orqali talabalar kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Masalan, virtual reallik, sun'iy intellekt yoki raqamli platformalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda tarbiya fani muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Fanlararo integratsiya pedagogik jarayonni yanada samarali va ta'sirchan qilishga imkon yaratadi. Tarbiya fani orqali kreativ fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy



tayyorgarligiga katta hissa qo'shadi. Shu sababli, tarbiya fanining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir. Kelajakda tarbiya fanining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi rolini yanada chuqur o'rganish, yangi interfaol metodlarni qo'llash va texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda pedagogik jarayonni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kreativlikni rivojlantirishda ijtimoiy omillar va shaxsiy faollik muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar va jamiyatdagi innovatsion tendensiyalar talabalarning ijodiy salohiyatini shakllantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning faolligi, mustaqil fikrlashga intilishi va yangilikka ochiqligi kreativlikni rivojlantirishda asosiy omillar hisoblanadi.

Kreativ shaxslarni boshqalardan ajratib turuvchi hissiy fazilatlar, masalan, o'z-o'ziga ishonch, tajovuzkorlik, o'z-o'zidan motivatsiya kabi xislatlar, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu fazilatlar tarbiya jarayonida shakllantirish orqali talabalarning kreativ salohiyatini oshirish mumkin. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish mumkin. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda tarbiya fanining integrativ imkoniyatlari keng ko'lamlil bo'lib, ijtimoiy omillar, shaxsiy fazilatlar, zamonaviy texnologiyalar va fanlararo integratsiya kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu omillarni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda tarbiya fanining integrativ imkoniyatlari keng ko'lamlil va samaralidir. Integrativ metodlar orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ijodiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fanlararo integratsiya talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar va shaxsiy faollik ham talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Tarbiya fani orqali bu omillarni uyg'unlashtirish talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o'rtata'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 422-son qarori.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, 49-bet.
4. Novshadbekova, D. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlashni takomillashtirish. Science and innovation, 1(B6), 202-205